

M. SH. ABDULLAEVA

# MATEMATIKA

(Boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari  
uchun uslubiy qo'llanma)

Andijon - 2015

UO'K: 372.851 (072)

KBK: 22.1

A - 15

*А. Ахмедов*  
*Ўқувчиси*

Ushbu uslubiy qo'llanma Buloqboshi pedagogika ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji ilmiy kengashining 2015-yil 4-sentabrdagi yig'ilishida muhokama qilinib, chop etishga tavsiya etilgan.

**Tuzuvchi:** **M. Sh. Abdullaeva,**  
Buloqboshi pedagogika ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji 2-bosqich o'quvchisi

**Taqrizchilar:** **A. Axlimirzaev,**  
Andijon Davlat universiteti matematika kafedrası dotsenti  
**M. Mamasodiqova,**  
Buloqboshi pedagogika ijtimoiy-iqtisodiyot kolleji matematika o'qituvchisi

A - 13. Abdullayeva M. Matematika. Uslubiy qo'llanma. –  
“Andijon nashriyot-matbaa” MCHJ, 2015-yil. 82 bet.

Ushbu uslubiy qo'llanmada birdan yigirmagacha bo'lgan sonlar ichida qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarini bajarish qoidalari yetarlicha mashqlar bilan bayon qilingan.


Bundan tashqari ushbu uslubiy qo'llanmada har bir amalni qo'llashga olib keluvchi va o'quvchilarda zo'r qiziqish uyg'otadigan hayotiy masalalardan namunalar keltirilgan.

Qo'llanmadan umumta'lim maktablari o'qituvchilari, o'quvchilari hamda pedagogik yo'nalishdagi kollej o'qituvchilari va o'quvchilari foydalanishlari mumkin.

ISBN 978-9943-4407-8-4

© M. Abdullayeva, 2015.

© “Andijon nashriyot-matbaa”  
MCHJ, 2015



1044257  
2

## SO‘Z BOSHI

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ta’lim tizimi uchun davlat ta’lim standartlarini ishlab chiqish va joriy etish to‘g‘risida” hamda “O‘zbekiston Respublikasida umumiy o‘rta ta’limni tashkil etish to‘g‘risida” gi qarorlariga bevosita o‘qituvchilar, xalq ta’limi xodimlari oldiga, jumladan, maktabda matematika fanini o‘qitishning sifatini oshirish bilan birga o‘quvchilarning tafakkuri va shaxsiy sifatlarini, matematikadan savodxonligini shakllantirish hamda ijodiy qobiliyatlarini o‘stirish vazifalari yuklatilgan.

Matematika bolalarda tafakkur, diqqat, xotira, ijodiy fikrlash, kuzatuvchanlik kabi fazilatlarni rivojlantirishga yordam beradi. Matematika, shuningdek, o‘quvchilarni mantiqiy fikrlash, malakalarini oshirish, o‘z fikrlarini aniq, to‘g‘ri va tushunarli bayon etishga o‘rgatadi.

Shuning uchun quyi sinflardan oq, jumladan, birinchi sinfdanoq matematikani o‘qitishga katta ahamiyat berish kerak. Bunda darsliklar bilan bir qatorda o‘quv va uslubiy qo‘llanmalarning o‘rni beqiyosdir. Muallif tomonidan yozilgan ushbu uslubiy qo‘llanma ana shunday qo‘llanmalardan biri bo‘lib, unda birdan yigirmagacha bo‘lgan sonlar ichida qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish va bo‘lish amallari sodda va tushunarli qilib bayon qilingan.

## I-bob. SONLARNI BIR NECHA BIRLIK ORTTIRISH VA KAMAYTIRISH

### § 1. Sonni bir necha birlik orttirish

1. Partaning o'ng tomoniga 4 ta cho'p qo'ying, chap tomoniga ham shuncha cho'p qo'ying. Partaning chap tomonida nechta cho'p bor? Partaning chap tomoniga yana 3 ta cho'p qo'ying. O'ng va chap tomondagi cho'plar soni tengmi? Partaning qaysi tomonida cho'p ko'p? Partaning chap tomonida nechta ortiq cho'p bor? **Partaning chap tomonida 3 ta cho'p ortiq.**

2. 4 ta qizil doiracha oling, shuncha va yana 1 ta yashil doiracha oling. Qaysi doiracha ortiq bo'ladi?

3. Bir qatorga 6 ta kvadrat qo'ying, ikkinchi qatorga undan 2 ta ortiq kvadrat qo'ying. Ikkinchi qatorda nechta kvadrat bor? Qanday bilish mumkin?  $6+2=8$ .

4. Bir bolaga o'n ikkita doiracha berildi. Boshqa bolaga shuncha va yana 4 ta doiracha berildi? Qaysi bolada doirachalar ko'p bo'ldi? Nima uchun ko'p?

#### 5. Masala.

Masalaning sharti: Po'lat mehnat darslarida 15 ta quticha yasadi. Botir esa undan 5 ta ortiq quticha yasadi.

Masalaning savoli: Botir nechta quticha yasagan?

Masalaning yechilishi:  $15 \text{ q.} + 5 \text{ q.} = 20 \text{ q.}$

Masalaning javobi: Botir 20 ta quticha yasagan.

### **Masalalarni yeching.**

6. 1) Yuqoridagi tokchada 10 ta kitob bor, pastdagi tokchada ham shuncha kitob bor. Pastki tokchada nechta kitob bor?

2) Yuqoridagi tokchada 10 ta kitob bor, pastki tokchada esa shuncha va yana 5 ta kitob bor. Pastki tokchada kitoblar nechta?

3) Yuqoridagi tokchada 10 ta kitob bor, pastki tokchada undan 5 ta kitob ortiq. Pastdagi tokchada nechta kitob bor?

7. Salimda 12 ta qalam bor, Valida esa undan 6 ta qalam ortiq. Valida nechta qalam bor? Qanday bilish mumkin?

8. Birinchi son 14 ga teng, ikkinchi son undan 2 ta ortiq. Ikkinchi son nechga teng?  $14+2=16$

9. 14 sonini 2 ta orttiring. Qancha xosil bo'ladi?  $14+2=16$

10. 6, 10, 15, 17, 11-sonlaridan 2 ta ortiq sonlarni toping.

Yechilishlarini misol tarzida yozing.

11. 5, 7, 12, 14, 16-sonlarining har birini 3 ta orttiring.

Yechilishlarini misol tarzida yozing.

12. 11 sonini 3 ta orttiring, 15 ni 1 ta, 13 ni 2 ta, 12 ni 5 ta, 16 ni 4 ta, 11 ni 6 ta orttiring. Yechilishlarini misol tarzida yozing.

13. 10 sonini hosil qilish uchun 4 sonini nechta orttirish kerak? 20 sonini hosil qilish uchun 19 sonini nechta orttirish kerak?

14. 20 sonini hosil qilish uchun quyidagi sonlardan har birini nechta orttirish kerak? 18, 17, 16, 15, 14, 13, 12, 11, 10.

15. Yaxmalakda 17 nafar o'g'il bola bor, qiz bolalar ulardan 3 nafar ortiq. Yaxmalakda nechta qiz bola bor? Qanday bilish mumkin?

16. Xo'r to'garagida 13 nafar o'g'il bolalar va ulardan 6 nafar ortiq qiz bolalar ashula aytadi. Xo'r to'garagida nechta o'quvchi ashula aytadi?

17. Sonlarni o'rniga qo'ying va masalani yeching.

Maktab oldida 10 tup tol, undan ... tup ortiq terak bor.

Maktab oldida necha tup terak bor?

18. Ta'tilga 12 nafar qiz bola, undan 4 nafar ortiq o'gil bola jo'nadi. Masalaga savol qo'ying va uni yeching.

19.  $12+5=17$  misolini bunday o'qish mumkin: "12 sonini 5 ta orttirsak, 17 hosil bo'ladi" yoki "Agar 12 soni 5 ta orttirilsa, u holda 17 hosil bo'ladi".

20. Misollarni "orttirish" so'zi bilan o'qing va ularni yeching. Yechilishini cho'tda tekshiring.

7+3	10+8	12+8
8+2	6+10	7+11
5+5	10+10	14+3
7+13	11+2	
15+5	4+16	
2+18	17+1	

## § 2. Sonlarni bir necha birlik kamaytirish

1. Bir qatorga 7 ta cho'p qo'ying, ikkinchi qatorga ham shuncha cho'p qo'ying. Ikkinchi qatorda nechta cho'p bor? Ikkinchi qatordan 3 ta cho'p oling. Endi birinchi va ikkinchi qatordagi cho'plar teng bo'ladimi? Ikkinchi qatorda nechta cho'p yetmaydi? **Ikkinchi qatorda 3 ta cho'p kam.**

2. Partaning o'ng tomoniga 5 ta kubcha qo'ying, chap tomoniga ham shuncha kubcha qo'ying. Chap tomondan 2 ta kubchani oling. **Chap tomonda 2 ta kubcha kam.**

3. Bir qatorga 7 ta kvadrat, ikkinchi qatorga undan 1 ta kam kvadrat qo'ying. Ikkinchi qatorda nechta kvadrat bor?  $7-1=6$

### 4. Masala.

Masalaning sharti: Sirkda 6 ta yo'lbars, ulardan ikkita kam sher o'ynadi.

Masalaning savoli: Sirkda nechta sher o'ynagan?

Masalaning yechilishi:  $6-2=4$ .

Masalaning javobi: Sirkda 4 ta sher o'ynagan.

### **Masalalarni yeching.**

5. 1) Kecha bir o'quvchi 13 bet kitob o'qigan, bugun ham shuncha bet o'qidi. O'quvchi bugun necha bet kitob o'qigan?

2) Kecha yana bir o'quvchi 13 bet kitob o'qidi, bugun esa 3 bet kam kitob o'qidi. O'quvchi bugun necha bet kitob o'qidi?

6. Malika 14 ta qayin daraxti bargini, undan 4 ta kam eman daraxti bargini quritdi. Malika nechta eman daraxti bargini quritgan? Qanday qilib bilish mumkin?

7. Birinchi son 15, ikkinchi son undan **5 ta kam**. Ikkinchi son qanchaga teng?  $15-5=10$

8. 15 sonini **4 ta kamaytiring**. Qancha hosil bo'ladi.  
 $15-4=11$ .

9. Berilgan 9, 13, 16, 20, 15 sonlaridan **3 ta kam** bo'lgan sonlarni toping. Yechilishini misol tarzida yozing.

10. Ushbu 6, 1, 18, 17, 19 sonlarining har birini **3 taga kamaytiring**. Yechilishini misol tarzida yozing.

11. 14 ni 4 ta kamaytiring, 10 ni 1 ta, 12 ni 1 ta, 20 ni 10 ta, 17 ni 5 ta, 18 ni 3 ta kamaytiring. Yechilishlarni misollar tarzida yozing.

12. 5 soni hosil bo'lishi uchun 10 ni nechta kamaytirish kerak? 10 chiqishi uchun 11 ni nechta kamaytirish kerak?

13. 10 chiqishi uchun 12, 13, 14, 15, 11 sonlarini nechta kamaytirish kerak?

14. Sobir 13 ta samolyot rasmini chizdi, Malik esa undan 3 ta kam samolyot rasmini chizdi. Malik nechta samolyot rasmini chizgan? Qanday bilish mumkin?

15. Uy oldida 18 ta tovuq, undan 8 ta kam o'rdak bor edi. Uy oldida nechta o'rdak bo'lgan?

16. Masalaga sonlarni qo'ying va uni yeching:

Yetakchilar 10 ta quyon boqishdi. O'quvchilar esa undan ... ta kam quyon boqishgan. O'quvchilar nechta quyon boqishgan?

17. To'garakka 16 nafar o'g'il bola va undan 2 nafar kam qiz bola yozildi. Masalaga savol qo'ying va uni yeching?

18.  $15-5=10$  misolini bunday o'qish mumkin: "15 ni 5 ta kamaytirsak, 10 chiqadi" yoki "Agar 15 soni 5 ta kamaytirilsa, u holda 10 chiqadi". Misollarni "kamaytirilsa" so'zi bilan o'qing va ularni yeching. Yechilishlarini cho'tda tekshiring:

10-4	11-1	17-5
9-8	12-10	19-6
8-5	17-17	20-5

20-10	14-14
18-3	19-9
16-1	16-6

19. Partaning o'ng tomoniga 10 ta doiracha, chap tomoniga esa undan **3 ta ortiq doiracha** qo'ying. Chap tomonda nechta doiracha bo'ldi?

20. Partaning o'ng tomoniga 10 ta doiracha, chap tomoniga undan **3 ta kam doiracha** qo'ying. Chap tomonda nechta doiracha bo'ldi?

Yechilishlarni misollar tariqasida yozing va ularni taqqoslang. Nima uchun yechimlar turlicha?

21. Chap qo'lingizga 14 ta cho'p oling, o'ng qo'lingizga **4 ta ortiq** cho'p oling. O'ng qo'lingizdagi cho'plar nechta?

22. Chap qo'lingizga 14 ta cho'p oling, o'ng qo'lingizga esa undan **4 ta kam** cho'p oling. O'ng qo'lingizdagi cho'plar nechta? Yechilishlarini misol tariqasida yozing. Misollarning javoblarini taqqoslang. Nima uchun ular turlicha?

23. 6, 8, 10, 12, 14, 17, 18 sonlarining har birini **2 ta orttiring**.

24. 4, 7, 10, 12, 20, 13, 15 sonlarining har birini **2 ta kamaytiring**.

Misollarni yozing va ularni yeching.

25. Tekshiring:

1) Agar 8, 10, 13, 18, 17, 19 sonlarining har biri **1 ta orttirilsa, keyingi son hosil bo'ladi**.



2) Agar 4, 10, 14, 16, 15, 20 sonlarining har biri 1 ta kamaytirilsa, oldingi son hosil bo'ladi.

26. 6 ta bir xonali son yozing. Ularning har birini 10 ta orttiring. Yechilishlarini misollar tarzida yozing.

27. 10 dan 20 gacha ikki xonali sonlardan istalgan 6 tasini yozing. Har bir sonni 10 ta kamaytiring. Yechilishlarini misollar tarzida yozing.

**Masalalar nimasi bilan o'xshash, nimasi bilan farq qiladi? Har bir masalani qanday yechasiz? Nima uchun?**

28. Magazinga 12 qop un, undan 2 qop ortiq guruch keltirildi. Necha qop guruch keltirilgan?

29. Magazinga 12 qop un, undan 2 qop kam guruch keltirildi. Magazinga necha qop guruch keltirilgan?

30. Chang'ida sayr qilishga 16 nafar o'g'il bola, ulardan 4 nafar ortiq qiz bola chiqdi. Sayrga necha nafar qiz bola chiqqan?

31. Chang'ida sayr qilishga 16 ta o'g'il bola, ulardan 4 ta kam qiz bola chiqishdi. Sayrga necha nafar qiz bola chiqqan?

32. Misollarni "orttirish" yoki "kamaytirish" so'zlarini ishlatib o'qing va ularni yeching. Yechilishini cho'tda tekshiring:

$6+4$

$10-9$

$12+5$

$7+2$

$7-7$

$11+9$

$1+8$

$6-3$

$14+3$

$5+5$

$10-8$

$18-2$

$14-4$

$10+10$

$20-10$

$12-2$

$10+5$

$17-17$

$17-7$

$9+10$

$12-10$

$19-9$

$7+10$


$16-16$

### Litr

1. Bir litrli stakan. Unga 1 litr suyuqlik ketadi. Suyuqlikni litr bilan o'lchash mumkin. Sonlar yoziladi; 5 l, 10 l, 1 l, 8 l.

2. Lirllab sutni, suvni o'lashash mumkin. Litrlab yana nimalar o'lchanadi?

3. Bir litrli bankani ko'rsating.



4. Istalgan bir litrli bankaga yoki shishaga bir xil miqdorda suyuqlik – 1 l ketadi. Bir litrli shishani yoki bankani olib ana shuni tekshiring. Shishani suv bilan to'ldiring, so'ngra shu suvni bankaga quyung. Agar banka ham to'lsa u holda bunday xulosa chiqarish mumkin: bankaga va shishaga 1l dan suyuqlik (suv) sig'adi.

5. Quyidagi so'zlar orasidan litr bilan o'lchash mumkin bo'lganlarini daftaringizga ko'chirib yozing: *qand, suv, non, sut, guruch, karam, qaymoq, o'simlik yog'i, olma, kefir, kartoshka, go'shit, un, sharbat.*

6. Bir litrli bankaga yarim litrli suvdan 2 tasi sig'adi. Uch litrli bankaga yarim litr suvdan nechtasi ketadi? O'lchab tekshiring.

### **Masalalarni yeching.**

7. Bo'chkadan bir kastyulkaga 4 l sut, ikkinchisiga 2 l sut quyildi. Ikkala kastyulkaga necha litr sut quyilgan?

8. Idishda 17 l benzin bor edi. 5 l benzin olindi. Idishda

necha litr benzin qoldi?

9. Bir idishda 6 l sut, ikkinchisida undan 3 l kam sut bor. Ikkinchi idishda necha litr sut bor?

10. Fermer ayol bozorga ikki bo'chka sut olib keldi. Birinchi bo'chkada 6 l sut, ikkinchisida esa undan 2 l ortiq sut bor. Ikkinchi bo'chkada necha litr sut bor?

11. Misollarni yeching.

$$2\text{ l} + 6\text{ l}$$

$$9\text{ l} - 8\text{ l}$$

$$7\text{ l} + 10\text{ l}$$

$$15\text{ l} - 12\text{ l}$$

$$15\text{ l} - 5\text{ l}$$

$$16\text{ l} - 10\text{ l}$$

$$8\text{ l} + 10\text{ l}$$

$$11\text{ l} + 9\text{ l}$$

$$12\text{ l} - 2\text{ l}$$

$$6\text{ l} + 13\text{ l}$$

$$13\text{ l} - 10\text{ l}$$

$$10\text{ l} + 10\text{ l}$$

$$5\text{ l} + 5\text{ l}$$

$$11\text{ l} + 8\text{ l} - 9\text{ l}$$

$$7\text{ l} + 13\text{ l} - 20\text{ l}$$

$$6\text{ l} + 14\text{ l} - 10\text{ l}$$

12. Og'zaki hisoblang.

1) Chelakka ikkita uch litr sut va yana 4 litr sut quyilgan. Chelakka necha litr sut quyilgan?

2) Kastr'yulkaga 5 l suv va yana ikkita yarim litrli bankada suv quyildi. Kastr'yulkaga necha litr suv quyilgan?

Kerakli sonlarni qo'ying va masalalarni yeching.

13. Bir sigirdan bir kunda ... l sut sog'iladi. Ertalab ... l sut sog'ildi, kechqurun qolgan sut sog'ildi. Kechqurun necha litr sut sog'ilgan.

14. Mashinaning bokida ... l benzin bor edi. Yo'lga ... l benzin sarflandi. Bokda necha litr benzin qoldi?

Masalalarga savollar qo'ying va ularni yeching.

15. Bir sigirdan ertalab 11 l sut, kechqurun esa 9 l sut sog'ildi.

16. Mashinaning bokida 15 l benzin bor edi. Bokka yana 5 l benzin quyildi.

### § 3. 20 ichida sonlarni qo'shish va ayirish

1. Qutichada 9 ta qalam bor. Qalamlar 10 ta bo'lishi uchun qutichaga yana nechta qalam qo'yish kerak?

2. Malikda 8 ta o'yinchoq mashina bor edi. Akasi unga yana o'yinchoq mashina bermoqchi bo'ldi. Malikning mashinalari 15 ta bo'lishi uchun akasi unga yana nechta mashina berishi kerak?

3. 10 ta olmani 2 ta taqsimga qanday bo'lish mumkin?

4. Misollarni yeching?

$7+3$

$6+4$

$8+2$

$5+5$

$3+7$

$4+6$

$2+8$

$5+0$

$9+1$

$10+0$

$1+9$

$0+10$

$10=8+$

$10=6+$

$10=1+$

$10=5+$

$10=4+$

$10=9+$

5. Misollarni yeching.

$9+1+2$

$9+1+4$

$9+1+7$

$9+1+6$

$9+1+8$

$9+1+5$

$8+2+4$

$8+2+3$

$8+2+7$

$8+2+6$

$8+2+5$

$8+2+1$

6. Masalalarga savol qo'ying va ularni yeching.

1) Malikaning qutichasida 7 ta qalam bor edi. Malika qutichaga yana 3 ta qalam soldi.

2) Tohirning uyiga 6 ta qiz bola va 4 ta o'g'il bola mehmon bo'lib keldi.

3) Karim archaga 8 ta qizil shar va 2 ta yashil shar ilib qo'ydi.

7. 10 gacha to'ldiring.

8	7	4	1	10	3	6	2	5	9
2	.	.	.	.	.	.	.	.	.

8. Kerakli sonni qo'ying.

$\begin{array}{c} 8 \\ \wedge \\ 1 \text{ va } \dots \end{array}$        $\begin{array}{c} 6 \\ \wedge \\ 5 \text{ va } \dots \end{array}$        $\begin{array}{c} 5 \\ \wedge \\ 3 \text{ va } \dots \end{array}$        $\begin{array}{c} 4 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$

$\begin{array}{c} 9 \\ \wedge \\ 7 \text{ va } \dots \end{array}$        $\begin{array}{c} 10 \\ \wedge \\ 5 \text{ va } \dots \end{array}$        $\begin{array}{c} 6 \\ \wedge \\ 0 \text{ va } \dots \end{array}$        $\begin{array}{c} 7 \\ \wedge \\ 4 \text{ va } \dots \end{array}$

9. 1) 8 nafar bola koptok o'ynayotgan edi. Ularga yana ikki nafar bola qo'shildi. Nechta bola koptok o'ynay boshladi?

2) 10 nafar bola koptok o'ynayotgan edi. 7 nafar bola uyiga ketdi. Nechta bola qolgan?

3) 8 nafar bola koptok o'ynayotgan edi. Ularga ikkita bola qo'shildi. Keyin 7 nafar bola uyiga ketdi. Nechta bola koptok o'ynab qoldi.

Masalaning sharti: 8 nafar bola koptok o'ynayotgan edi. Ularga 2 nafar bola kelib qo'shildi. Keyin 7 nafar bola uyiga ketdi.

Masalaning savoli: Necha nafar bola qoldi?

Masalada nima ma'lum? Masalada nima so'ralyapti? Masalaning savoliga darhol javob berish mumkinmi? Qancha bola koptok o'ynay boshlaganini bilish mumkinmi? Qanday amal bilan? Yoziq:  $8 \text{ b.} + 2 \text{ b.} = 10 \text{ b.}$  Qancha bola koptok o'ynaganini endi bilish mumkinmi? Qanday amal bilan? Yoziq:  $10 \text{ b.} - 7 \text{ b.} = 3 \text{ b.}$

Masalaning yechilishi:

1)  $8 \text{ b.} + 2 \text{ b.} = 10 \text{ b.}$

2)  $10b - 7b = 3b$ .

Masalaning javobi. Uch nafar bola koptok o'ynab qoldi. Masalaning savoliga javob bera oldikmi? Javobni ayting.

Bu masalani yechish uchun nechta amal bajarilishi kerak?

10. Po'lat bilan Davron 16 ta yong' oq terishdi. Har bir bola nechtdan yong' oq tergan bo'lishi mumkin? Javoblarni jadvalga yozing:

Hammasi	Po'lat	10	.	6	.	5	11
16 ta yong' oq	Davron	.	12	10	4	.	.

11. Qanday ishora qo'yilmagan?

$7...2=9$

$14...3=17$

$10...6=16$

$9...1=10$

$12...4=16$

$10...8=18$

$5...3=8$

$12...7=19$

$10...10=20$

$6...4=10$

$15...3=18$

$10...5=15$

12. Misollarni yeching:

$10+7$

$10+5$

$10+1$

$7+10$

$5+10$

$1+10$

$10+2$

$10+0$

$10+3$

$2+10$

$0+10$

$3+10$

13. Yig'indini toping:

$10+9$

$10+8$

$10+5$

$9+10$

$8+10$

$5+10$

$10+4$

$6+10$

$20+0$

$4+10$

$10+6$

$0+20$

14. Sonlarning yig'indisini toping:

$$10 \text{ sm} + 7 \text{ sm} + 1 \text{ sm}$$

$$13 \text{ sm} + 3 \text{ sm} + 2 \text{ sm}$$

$$12 \text{ m} + 6 \text{ m} + 1 \text{ m}$$

$$15 \text{ m} + 2 \text{ m} + 2 \text{ m}$$

$$1 \text{ l} + 7 \text{ l} + 1 \text{ l}$$

$$18 \text{ l} + 1 \text{ l} + 1 \text{ l}$$

15. Malika bir kitobni 3 kunda o'qib chiqdi. Birinchi kuni u 6 bet o'qidi, ikkinchi kuni 4 bet, uchinchi kuni 5 bet o'qidi. Kitob necha betli edi?

16. Kerakli sonni qo'ying:

9



1 va ...

7



1 va ...

2



1 va ...

5



1 va ...

8



1 va ...

3



1 va ...

6




1 va ...

4



1 va ...

17. 9 ta oq doirachaga 2 ta qora doirachani qo'shish kerak. Bunday qiling: 9 ta oq doirachaga avval 1 ta qora doirachani qo'shing, hamma doirachalar nechta bo'ldi?  $9+1=10$ .



Endi 10 ta doirachaga qolgan yana bitta qora doirachani qo'shing.  $10+1=11$ . hamma doirachalar nechta?  $9+2=11$ .

Bunday yozing:

$$9+2=11$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ \underline{9+1+1=11} \end{array}$$

18. Misollarni yeching:

$9+5$

$9+8$

$9+6$

$9+7$

$9+9$

Esda tuting:

$9+1=10$	$9+3=12$	$9+5=14$	$9+7=16$
$9+2=11$	$9+4=13$	$9+6=15$	$9+8=17$
	$9+9=18$		


19. Bir qatorda 9 ta yetakchi, ikkinchi qatorda 5 ta yetakchi bor. Ikkala qatorda nechta yetakchi bor?

20. Karim sinfda 9 ta misol yechdi, uyda esa 7 ta misol yechdi. Karim hammasi bo'lib nechta misol yechdi?

21. Misollar tuzing va yeching.


Birinchi qo'shiluvchi	9	9	9	9	9	9	9
Ikkinchi qo'shiluvchi	3	6	4	8	7	9	2
Yig'indi	?	?	?	?	?	?	?

22. Juftlab 20 gacha sanang.



$$2+2+2+2+2+2+2+2+2+2=20$$

23. Uchtalab 18 gacha sanang.



$$3+3+3+3+3+3=18$$

24. Quyidagi sonlarning har biridan oldingi sonni ayting:

8, 9, 12, 14, 16, 20.



Quyidagi sonlarning har biridan keyin keladigan sonni ayting:

7, 10, 13, 18, 19, 14, 17.

25. Qaysi biri katta? Qaysi biri kichik?  $16+1$  mi yoki  $16-1$  mi?  $14-3$  mi yoki  $14+3$  mi?  $10+8$  mi yoki  $10-8$  mi?  $17+5$  mi yoki  $17-5$  mi? Nima uchun?

Mana bunday yozing:

$$16+1 > 16-1$$

26. Misollarni yeching.

$8+2+9$	$6+4+2$
$10+5+1$	$10+7+3$
$13+3+4$	$18+1+1$
$9+4+5$	$9+2+7$
$7+3+4$	$9+1+9$
$10+4+5$	$10+9+1$
$14+2+3$	$11+8+1$
$9+7+3$	$9+9+2$
$0+9+5$	$9+3+4$

27. 1) Donxo'rak yoniga 9 ta chittak va 6 ta chumchuq uchib keldi. Donxo'rak yoniga nechta qush uchib keldi?

2) Donxo'rak yoniga ... qush uchib keldi. Donxo'rak yoniga nechta qush uchib kelgan? Keyin 11 ta qush uchib ketdi. Donxo'rak yonida nechta qush qoldi?

3) Donxo'rak yonida 9 ta chittak va 6 ta chumchuq uchib keldi. Keyin 11 ta qush uchib ketdi. Donxo'rak yonida nechta qush qoldi? Masalada nima ma'lum? Masalada nima so'ralyapti? Masalaning savoliga darhol javob berish mumkinmi? Qaysi amal bilan? Endi nechta qush qolganini bilish mumkinmi? Qaysi amal bilan? Endi biz masalaning savoliga javob berdikmi? Javobini ayting. Bu masalani yechish uchun nechta amal bajarish kerak?

2015/130 A 8731	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston MK
--------------------	--

28. Misollarni yeching:

$8+2+9$

$8+2+2$

$8+2+4$

$8+2+10$

$8+2+1$

$8+2+7$

$8+2+5$

$8+2+8$

29. Yetishmayotgan sonlarni yozing:

$$\begin{array}{c} 8 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 9 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 5 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 7 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 4 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 3 \\ \wedge \\ 2 \text{ va } \dots \end{array}$$

30.  $8+3=11$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 2 \text{ va } 1 \end{array}$$



$8+2+1=11$

31.

$8+4$

$8+5$

$8+2+2$

$8+2+.$

$8+6$

$8+ . + .$

8 ta to'rtini qo'shish uchun avval 8 ni 10 gacha to'ldirish kerak, so'ngra qolgan birliklarni qo'shish kerak.

32. Misollarni yeching.

$8+2+4$

$8+2+7$

$8+2+8$

$8+6$

$8+9$

$8+10$

Esda tuting:

$8+3=11$

$8+5=13$

$8+7=15$

$8+4=12$

$8+6=14$

$8+8=16$

33. Misollarni yeching.


$$\begin{array}{ccccc} 8+5 & 8+7 & 8+3 & 8+8 & 8+4 \\ 9+4 & 9+6 & 9+2 & 9+7 & 9+3 \end{array}$$

Bu misollarni o'qing. "Plyus", "qo'shish" so'zlaridan foydalaning.

34. Doktor Begemot 8 ta tipratikon va 6 ta olmaxonni ko'rdi. Doktor begemot nechta hayvonni ko'rgan?

35. O'g'il bolalar archaga 8 ta o'yinchoq yasashdi, qiz bolalar ham shuncha o'yinchoq yasashdi. Bolalar hammasi bo'lib nechta o'yinchoq yasashdi?

36. To'rttalab 20 gacha sanang.



$$4+4+4+4+4=20$$

37. Misollarni yeching.

$$\begin{array}{cccc} 8+3 & 8+4 & 8+5 & 8+6 \\ 9+3 & 9+4 & 9+5 & 9+6 \end{array}$$

Bu misollarni o'qing. "Qo'shiluvchi", "yig'indi" so'zlaridan foydalaning.

38. 1) 8 nafar o'g'il bola bilan 7 nafar qiz bola bog'da ishlayotgan edi. Hammasi bo'lib necha nafar bola bog'da ishlayotgan edi?

2) .. bola bog'da ishlayotgan edi. (hammasi bo'lib necha nafar bola bog'da ishlayotgan edi?) Keyin 5 nafar bola ketdi. Necha nafar bola qoldi?

3) 8 nafar o'g'il bola bilan 7 nafar qiz bola bog'da ishlayotgan edi. Keyin 5 nafar bola ketdi. Necha nafar bola qoldi? Masalada nima ma'lum? Masalada nima so'ralyapti? Masalaning savoliga darhol javob berish mumkinmi? Qancha bola bog'da ishlayotganini darhol bilish mumkinmi? Qanday

amal bilan? Endi qancha bola qolganini bilish mumkinmi?  
Qanday amal bilan? Masalani yeching va javobini yozing.

39. Qo'yilmagan sonlarni o'rniga son qo'ying.

$8+ \dots = 12$

$8+ \dots = 16$

$8+ \dots = 11$

$8+ \dots = 10$

$8+ \dots = 13$

$8+ \dots = 14$

$8+ \dots = 15$

$8+ \dots = 18$

$9+ \dots = 18$

$9+ \dots = 11$

$9+ \dots = 16$

$9+ \dots = 9$

40. O'g'zaki hisoblang:

$1+2$

$5+2$

$3+3$

$3+4$

$7-2$

$6+10$

$7+2$

$5+10$

$16-10$

$9+6$

$15-14$

$6+11$

$15-12$

$1+6$

$17-11$

$6+4$

$5+5$

$3+7$

$10-8$

$10-6$

$10+8$

$2+12$

$16-14$

$18-8$

$14-10$

$2+13$

$10-9$

$4+6$

$15-5$

$1+9$

41. Kerakli sonni yozing.

5



7



6



4



8



9



42. Misollarni yeching.

$7+3+4$

$7+3+5$

$7+3+0$

$7+3+3$

$7+3+8$


$7+3+6$

43.

$$7+4=11$$

$$\quad \wedge$$

$$7+3+1=11$$



44. Mana bunday yozing:

$$7+5$$

$$\quad \wedge$$

$$7+3+2$$

$$7+6$$

$$\quad \wedge$$

$$7+3+.$$

$$7+7$$

$$\quad \wedge$$

$$7+ . + .$$

45. Kerakli sonni o'rniga yozing:

$$5$$

$$\quad \wedge$$

$$4 \text{ va } \dots$$

$$8$$

$$\quad \wedge$$

$$4 \text{ va } \dots$$

$$7$$

$$\quad \wedge$$

$$4 \text{ va } \dots$$

$$9$$

$$\quad \wedge$$

$$4 \text{ va } \dots$$

$$4$$

$$\quad \wedge$$

$$4 \text{ va } \dots$$

$$6$$

$$\quad \wedge$$

$$4 \text{ va } \dots$$

46.

6+5

6+6

7+5

7+6

7+4

8+3

9+2

8+5

Bunday misollarni qanday yechish kerakligini tushuntiring.

47. Guldastada 18 ta atirgul bor. Ularni 2 ta vazaga qanday qilib bo'lish mumkin?

Javoblarini jadvalga yozing.

1 - vaza	5	...	6	...	1	...	...	...	...	...
2 - vaza	...	2	...	3	...	...	...	...	...	...

Esda tuting:

7+4=11

7+6=13

6+5=11

7+5=12

7+7=14

6+6=12

48. Maktab oshxonasida 7 ta stol bor. Yana 5 ta yangi stol qo'yildi. Oshxonada nechta stol bo'ldi?

49. Misollarni yozing va ularni yeching:

1) 7 ga 5 ni qo'shing; 6 ga 6 ni qo'shing; 9 ga 8 ni qo'shing.

2) 6 bilan 5 ni qo'shing; 7 bilan 7 ni qo'shing; 8 bilan 4 ni qo'shing.

3) 9 va 5 sonlarining yig'indisini toping; 8 va 8 sonlarining yig'indisini toping; 7 va 6 sonlarining yig'indisini toping.

4) Qo'shiluvchilar 6 va 5, 7 va 4, 8 va 9. Yig'indini toping.

5) 8 sonini 5 ta o'rttiring, 7 sonini 9 ta, 6 sonini 6 ta o'rttiring.

Masalalarga savol qo'ying va ularni yeching.

50. Magazinda payshanba kuni 9 ta televizor sotildi, juma kuni esa 6 ta, shanba kuni 5 ta televizor sotildi.

51. Bolalar qog'ozdan bayroqchalar qiyishdi. Po'lat 6 ta bayroqcha qiydi, Vasila ham shuncha bayroqcha qiydi. Karim esa 7 ta bayroqcha qiyib oldi.

Kerakli sonlarni qo'ying va ularni yeching.

52. Bolalar koptokni nishonga tashlayotgan edi. Gulchehra nishonga 7 marta tushirdi. Salima ... marta, Dilshod ... marta tushirdi. Bolalar nishonga necha marta tushirishgan?

53. Sobir cho'plardan shakllar yasadi. Avval u 4 ta cho'p olib to'rtburchak yasadi. So'ngra ... ta cho'pdan uchburchak yasadi, keyin ... ta cho'pdan to'g'ri to'rtburchak yasadi. Sobirga hammasi bo'lib nechta cho'p kerak bo'ldi?

54. Misollarni yeching.

$17+3-20$

$15-5+10$

$14+5-11$

$17-6+8$

$2+17-19$

$18-8+0$

$12+7-9$

$20-20+15$

$15+4-10$

$14-10+12$

$16+3-0$

$15-10-5$

Misollar bilan yozing.

55. Qizcha bir qo'lidagi savatda 3 ta nok, ikkinchi qo'lidagi savatda 12 ta nok olib ketayotgan edi. Bitta savatni bo'shatish kerak. Qizcha birinchi savatdagi noklarni ikkinchi savatga soldi. Qanday qilgan qulay: 12 ta nokni olib solishmi yoki 3 ta nokni olib solishmi?

$3+12$

yoki

$12+3$

56. O'ng tomoningga 9 ta cho'p, chap tomoningga 4 ta cho'p qo'y. Hammasi bo'lib nechta cho'p qo'yding?  $9+4=13$

O'ng tomoningga 4 ta cho'p qo'y, chap tomoningga 9 ta cho'p qoy. Hammasi bo'lib nechta cho'p qo'yding?  $4+9=13$

Nima uchun bu misollarning javoblari bir xil? Bu misollarni mana bunday yozish mumkin:  $9+4=4+9$

57. Misollarni yeching.

$9+4$

$8+5$

$7+6$

$4+9$

$5+8$

$6+7$

$6+5$

$8+3$

$9+2$

$5+6$

$3+8$

$2+9$

Nima uchun misollarni har bir juftining javobi bir xil?

**Masalalarni yeching.**

58. Bo'yoqchi bir kunda 11 ta partani bo'yadi, uning shogirdi esa 7 ta partani bo'yadi. Ular birgalikda nechta parta bo'yashgan?

59. Mashina turar joyidan 8 ta yuk mashina va 11 ta yengil mashina chiqib ketdi. Hammasi bo'lib nechta mashina chiqib ketgan?

60. Misollarni yeching.

$7+9$

$6+5$

$8+4$

$2+9$

$6+7$

$4+8$

$9+5$

$6+6$

$7+8$

$5+9$

$8+6$

$9+2$

$8+3$

$9+6$

$7+4$

$13-11+7$

$14-10+9$

$18-12+8$

$16-14+8$

$17-11+7$

$20-17+9$

$20-11+9$

$20-13+8$

$19-11+9$

61. 1) Archada 7 ta qizil va 9 ta yashil chiroqlar yonmoqda. Archada nechta chiroq yonyapti?

2) Archada ... ta chiroq yonyapti. 2 ta chiroq tushib sindi. Archada nechta chiroq qoldi?

Bu ikki masalani bitta masala qilib birlashtiring. Qaysi savolni qoldirish kerak?

62. 1) O'quvchilar 8 tup shaftoli ko'chati va 5 tup olma ko'chati ekdi. O'quvchilar nechta daraxt ko'chati o'tqazishgan?

2) O'quvchilar ... tup daraxt ko'chat o'tqazishdi. 1 tup daraxt ko'chati tutmay qurib qoldi. Necha tup ko'chat tutgan?

Bu ikki masalani bitta masala qilib birlashtiring. Qaysi masalaning savolini qoldirish kerak?

63. Misollarni yeching.

$1+1$

$6+6$

$8+8$

$10+10$

$3+3$

$7+7$

$9+9$

$5+5$

$2+2$

$4+4$

64. Sonlarning yig'indisini toping.

Birinchi qo'shiluvchi	9	6	7	8	4	10	12	1
Ikkinchi qo'shiluvchi	4	6	5	8	12	8	7	19
Yig'indi	?	?	?	?	?	?	?	?

Birinchi qo'shiluvchi ikkinchi qo'shiluvchiga teng bo'lishi mumkinmi? Jadvaldan ana shunday misol toping.

Birinchi qo'shiluvchi ikkinchi qo'shiluvchidan katta bo'lishi mumkinmi? Shu jadvaldan ana shunday misol toping.

Birinchi qo'shiluvchi ikkinchi qo'shiluvchidan kichik bo'lishi mumkinmi? Bu jadvaldan ana shunday misol toping.



65. Sonlarning yig'indisini toping.

$$15+0 \quad 0+9 \quad 12+0 \quad 0+20 \quad 16+10$$


Sonlarning yig'indisi qachon qo'shiluvchilardan biriga teng bo'ladi? Bunda ikkinchi qo'shiluvchi qanday son bo'ladi? O'zingiz ana shunday misollar o'ylab toping.

Quyidagi masalalarning shartlari nimasi bilan farq qiladi? Ularning yechilishi nimasi bilan o'xshash? Nima uchun?

66. Kichkina qayiqqa 5 kishi sig'adi, katta qayiqqa esa undan 9 ta ortiq kishi sig'adi. Katta qayiqqa necha kishi sig'adi?

67. Kichkina qayiqqa 5 kishi sig'adi, katta qayiqqa 9 kishi sig'adi. Ikkala qayiqqa necha kishi sig'adi?

68. 5 dan 20 gacha beshtalab sanang.



$$5+5+5+5=$$

69. Qo'shish kerakmi yoki ayirish kerakmi?

$$15 \dots 5 = 20$$

$$18 \dots 7 = 11$$

$$20 \dots 6 = 14$$

$$20 \dots 13 = 7$$

$$20 \dots 7 = 13$$

$$9 \dots 4 = 13$$

$$8 \dots 6 = 14$$

$$5 \dots 6 = 11$$

70. Misollarni yeching va mana bunday yozing:

$$5+9=14$$

$$9+5=14$$

$$5+9=9+5$$

$$6+8$$

$$6+5$$

$$7+6$$

$$4+7$$

$$9+2$$

...

...

...

...

...

71.	7+4+5	9+2+8
	6+5+5	8+3+9
	9+7+0	0+4+8
	20-11-7	14-10-3
	15-5-9	12-2-10
	19-13-6	17-5-12

72. 10 hosil qilish uchun nechani ayirish kerak?

11-?=10	18-?=10
12-?=10	15-?=10
19-?=10	14-?=10
13-?=10	20-?=10

73. Misollarni yeching.

11-1	14-4	10-8
17-7	19-9	15-3
17-6	20-10	10-1
18-17	16-10	12-10


74. Qayiqlar turar joyida 12 ta qayiq bor edi. Ko'lda sayr qilish uchun 10 ta qayiq olindi. Qayiqlar turar joyida nechta qayiq qoldi?

75. Salim akasi bilan 18 ta baliq tutdi. 8 ta baliqdan sho'rva qilishdi, qolganlarini qovurishdi. Ular nechta baliq qovurishgan?

76. Misollarni yeching.

11-1+5	11-1+7
11-1-5	11-1-7
11-1+0	11-1+1
11-1-0	11-1-1
11-1-2	11-1-3
11-1-8	11-1-9
11-1-6	11-1-4
11-1-10	11-0-1

77. 11 ta cho'p oling. 2 ta cho'pni parta ostiga qo'yish kerak. Avval parta ostiga 1 ta cho'pni qo'ying. Bunda nechta cho'p qoladi? Endi yana 1 ta cho'pni olib qo'ying. Parta ustida nechta cho'p qoldi?



78.

11-3



1 va 2

11-1-2

11-5



1 va .

11-1-.

11-4



. va .

11-.-.

11 dan 6 ni ayirish kerak. Buni qanday qilish mumkin? O'nlik qolishi uchun avval 11 dan 1 ni ayiramiz, so'ngra o'nlikdan yoki 10 dan qolgan 5 birlikni ayiramiz.

79. Misollarni yeching.

11-1-1

11-1-4

11-2

11-5

11-1-9

11-1-8

11-10

11-9

11-1-7

11-1-2

11-8

11-3

11-1-6

11-1-3

11-7

11-4

**Esda tuting:**

11-2=9

11-4=7

11-3=8

11-5=6

11-6=5

11-8=3

11-7=4

11-9=2

**80.** Po'chtachi 11 ta xatni egalariga yetkazishi kerak. U 5 ta xatni egalariga yetkazdi. Po'chtachi yana nechta xatni egalariga yetkazishi kerak?

**81.** Savatchada 12 ta sabzi bor edi. 8 tasi quyonlarga berildi. Savatchada nechta sabzi qolgan?

**82.** Misollarni yeching.

11+2	11+5	11+8
11-2	11-5	11-8
11+3	11+6	11+9
11-3	11-6	11-9

**83.** Misollar tuzing va ularni yeching.

Kamayuvchi	11	11	11	11	11	11	11	11	11	11
Ayiriluvchi	8	2	5	10	5	4	7	9	3	0
Ayirma	?	?	?	?	?	?	?	?	?	?

**84.** Qishloqda 8 ta yuk mashinasi bor edi. Yana 5 ta yangi yuk mashinasi sotib olindi. Ikkita mashina maktabga berildi. Qishloqda nechta mashina qoldi?

Bu masaladan ikkita masala tuzing. Birinchi masalani o'qing. Bu masalada nima yetishmaydi? Kerakli savol qo'ying. Masalani yeching.

**85.** Misollarni yeching.

12-2-1	12-2-2
12-2-3	12-2-7
12-2-5	12-2-6
12-2-4	12-2-8

**86.** Baliqchi 12 ta baliq tutdi. 2 ta baliqni mushugiga berdi. 9 ta baliqni qovurdi. Nechta baliq qoldi?

Masalaning yechilishini misol tariqasida mana bunday yozing.  $12-2-9=...$

**87.** Hovlida 12 nafar bola o'ynayapti. Oldin 2 nafar o'g'il bola dars tayyorlash uchun uyiga ketdi, keyin yana 7 nafar o'g'il bola ketdi. Hovlida qancha bola o'ynab qoldi? Masalaning yechilishini misol tariqasida yozing.

88. Ushbu: 12, 11, 15 sonlarining har birida nechta o'nlik va nechta birlik bor? Misol tariqasida yozing:

$$10 + \dots = 12 \quad \dots + \dots = 11 \quad \dots + \dots = 15$$

89. 12 ta doiracha oling. 3 ta doirachani konvertga solish kerak. Avval 2 ta doirachani konvertga soling. Nechta doiracha qoldi? Endi yana 1 ta doirachani konvertga soling. Nechta doiracha qoldi?

$$12 - 3 = 9$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 2 \text{ va } 1 \end{array}$$

$$12 - 2 - 1 = 9$$

$$12 - 4$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 2 \text{ va } 2 \end{array}$$

$$12 - 5$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 2 \text{ va } . \end{array}$$

$$12 - 6$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ . \text{ va } . \end{array}$$

$$12 - 2 - 2$$

$$12 - 2 - .$$

$$12 - . - .$$



90. Misollarni yeching.

$$12 - 7$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 2 \text{ va } . \end{array}$$

$$12 - 2 - .$$

$$12 - 8$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 2 \text{ va } . \end{array}$$

$$12 - 2 - .$$

$$12 - 9$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ . \text{ va } . \end{array}$$

$$12 - . - .$$

Esda tuting:

$$12 - 2 = 10$$

$$12 - 3 = 9$$

$$12 - 6 = 6$$

$$12 - 7 = 5$$

$$12 - 4 = 8$$

$$12 - 5 = 7$$

$$12 - 8 = 4$$

$$12 - 9 = 3$$

91. Misollarni yeching.

12-8

12-4

12-6

12-3

12-10

12-5

12-5

12-2

12-9

12-0

92. Qayıqlar turar joyida 12 ta qayıq bor edi. Ko'lda sayr qilish uchun 5 ta qayıq olindi. Qayıqlar turar joyida nechta qayıq qoldi?

Masalaga yetishmaydigan sonni qo'ying va uni yeching.

93. Kitob 11 betli. Gulchehra kitobning ... betini o'qib bo'ldi. Gulchehra yana necha bet kitob o'qishi kerak?

94. Misollar tuzing va ularni yeching.

Kamayuvchi	12	12	12	12	12	12	12	12
Ayriluvchi	5	7	8	4	2	10	0	9
Ayirma	?	?	?	?	?	?	?	?

95. Misollarni yeching.

8+4-9

5+7-12

9+3-4

2+9-5

10+1-9

6+6-4

2+10-12

8+4-10

96.

12-3+6

11-4-5

11-4+7

12-5-6

12-10+5

11-10-1

11-10+8

12-11-0

97. Yozilmagan sonlarni o'rniga qo'ying.

9+ . =14

12- . =5

7+ . =12

11- . =8

6+ . =15

12- . =6

$$. +10=15$$

$$. +9=18$$

$$.. +7=17$$

$$11-. =6$$

$$12-. =4$$

$$11-. =5$$

98. Sobirda 8 ta katak daftar va shuncha bir chiziqli daftar bor. U 10 ta daftarni akasiga berdi. Sobirda nechta daftar qoldi? Bu masaladan ikkita masala tuzing. Birinchi masalani o'qing. Savolni o'qing va bu masalani yeching.

Ikkinchi masalani o'qing. Savolini o'qing va masalani yeching. Butun masalaning yechilishini va javobini yozing.

99. Oshxonaga 2 ta bo'chkada sut keltirildi. Birinchi bo'chkada 9 l, ikkinchi bo'chkada 11 l sut bor. Nonushtaga 14 l sut ishlatildi. Necha litr sut qolgan?

100. Namuna bo'yicha misollar tuzing va ularni yeching.

$7+5=12$	$9+3$	$8+4$	$12+0$
$5+7=12$	...	...	...
$12-7=5$	...	...	...
$12-5=7$	...	...	...

101. Ikki sonning yig'indisi 12. Bu sonlar qanday sonlar bo'lishi mumkin? Jadvalga yozing.

Birinchi son	8	?	?	?	?	?	?
Ikkinchi son	4	?	?	?	?	?	?
Yig'indi	12	12	12	12	12	12	12

Quyidagi masalalarning shartlari va yechilishlari bir-biridan nimasi bilan farq qiladi? Nima uchun?

102. Malik quyonlarga 7 ta sabzi olib keldi, Karima esa 5 ta sabzi olib keldi. Bolalar quyonlarga nechta sabzi olib kelishgan?

103. Bolalar quyonlarga 12 ta sabzi olib kelishdi. Quyonlar 7 ta sabzini yeyishdi. Necha sabzi qoldi?

**104.** Vohid qog'ozdan 12 ta qizil bayroqcha, undan 3 ta kam ko'k bayroqcha yasadi. Vohid nechta ko'k bayroqcha yasagan?

**105.** Vohid qog'ozdan 12 ta qizil bayroqcha, undan 3 ta ortiq ko'k bayroqcha yasadi. Vohid nechta ko'k bayroqcha yasagan?

**106.** Misollarni yeching. Javoblarini taqqoslang. Nima uchun ular har xil?

$12+3$

$11+4$

$12+5$

$12-3$

$11-4$

$12-5$

$11+9$

$12+8$

$11-9$

$12-8$

$12-4$

$11-6$

$12-7$

$12+4$

$11+6$

$12+7$

$11-8$

$12-6$

$11+8$

$12+6$

**107.** Misollarni yeching.

$12-8$

$12-12$

$12-0$

Ayriluvchi kamayuvchidan kichik bo'lishi mumkinmi? Shunday misol toping. O'zingiz shunday 4 ta misol tuzing va ularni yeching.

Ayriluvchi 0 ga teng bo'lishi mumkinmi? Bunday holda javob qanday bo'lishi kerak? Shunday misol toping. Yana 4 ta shunday misol toping va ularni yeching.  $12-18=...$  misolini yechish mumkinmi? Agar mumkin bo'lmasa, nima uchun?

**108.** Yetishmaydigan sonlarni yozing:



$$\begin{array}{c} 8 \\ \wedge \\ 3 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 6 \\ \wedge \\ 3 \text{ va } \dots \end{array}$$


$$\begin{array}{c} 9 \\ \wedge \\ 3 \text{ va } \dots \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 7 \\ \wedge \\ 3 \text{ va } \dots \end{array}$$









**109.** 13 dan mana bunday ayiring: 13 dan 4 ni ayirish kerak. Buni qanday qilish mumkin? O'nlik qolishi uchun avval 13 dan 3 ni ayiramiz. So'ngra o'nlikdan yoki 10 dan qolgan birlikni ayiramiz.



**110.** 13 dan 5 ni ayirish kerak. Buni cho'tda qanday bajarish mumkin?

Cho'tga 1 o'nlik va 3 birlikni soling. Avval 3 birlikni ayiring. Cho'tda birlikdan iborat 1 o'nlik qoladi. Necha birlikni ayirish kerak? Endi 10 birlikdan 2 birlikni ayiramiz. Qanday son hosil bo'ldi?

**111.**



**Esda tuting:**

$$13-4=9$$

$$13-5=8$$

$$13-6=7$$

$$13-7=6$$

$$13-8=5$$

$$13-9=4$$

**112.** Misollarni yeching.

$$13-4$$

$$13-3-1$$

$$13-7$$

$$13-3-4$$

$$13-5$$

$$13-3-2$$

**113.** Avtobusda 13 nafar yo'lovchi bor edi. Bekatda 5 nafar yo'lovchi tushib ketdi. Avtobusda nechta yo'lovchi qolgan?

**114.** Malikada 13 ta qalam bor edi. U 4 ta qalamini dugonasiga berdi. Masalaga savol qo'ying va uni yeching.

**115.** Misollar bo'yicha masalalar tuzing va ularni yeching.

11-7                                  13-8                                  12-9

**116.** Misollarni yeching.

10-9                                  10-8                                  10-10

11-9                                  11-8                                  11-10

12-9                                  12-8                                  12-10

13-9                                  13-8                                  13-10

**117.** Sonlarning yig'indisini toping.

7 sm + 6 sm                          13 sm - 6 sm

3 m + 9 m                          12 m - 9 m

8 l + 8 l                                  16 l - 8 l

13 l + 5 l                                  18 l - 13 l

13 sm + 7 sm                          20 sm - 7 sm

12 m + 7 m                          19 m - 12 m

**118.** Mahmudda 13 ta katak daftar bor, Karimda esa undan 4 ta kam katak daftar bor. Karimda nechta katak daftar bor?

**119.** Bir to'pda 12 m gazlama, ikkinchisida 8 m gazlama bor. 16 m gazlama sotildi. Necha metr gazlama qolgan?

**120.** Savatda 8 ta nok va 5 ta olma bor. Tushlik vaqtida olma va nokdan 9 tasi yeyildi. Savatda qancha meva qoldi?

**121.** O'tloqda 7 ta kulrang g'oz va 6 ta oq g'oz yurgan edi. 8 ta g'oz ariq tomonga ketdi. O'tloqda nechta g'oz qoldi?

**122.** Bir to'pda 13 ta daftar bor. Bu daftarlar orasida nechtasi katak daftar va nechtasi bir chizikli daftar bo'lishi mumkin? Javoblarni jadval tarzida yozing.

Katak daftar	9	8	7	6	5	4	3	2	1	0
Bir chizikli daftar	4	?	?	?	?	?	?	?	?	?

**123.** Misollarni yeching.

8+4+4                                  12-9-2

7+9+0                                  13-4-7

12+5+3                                  11-5-5

124. Namunaga qarab misollar tuzing va ularni yeching.


9+4	8+5	7+6	10+3
4+9	...	...	...
13-4	...	...	...
13-9	...	...	...

125. Misollarni yeching.

13+7	13+6	13+5
13-7	13-6	13-5
13+4	11+3	12+4
13-4	11-3	12-4

126. 14 dan 5 ni ayirish kerak. Buni cho'tda qanday bajarish mumkin?

1 o'nlik va 4 birlikni cho'tga soling. Avval 4 birlikni ayiring. Cho'tda qanday son qoladi? 1 o'nlikni birliklar bilan almashtiring. Endi 10 birlikdan qolgan 1 birlikni ayiring. Qanday son hosil bo'ldi.



127.

$$\begin{array}{c}
 14-6=8 \\
 \wedge \\
 4 \text{ va } 2 \\
 14-4-2=8
 \end{array}$$

128.

$$\begin{array}{c}
 14-7 \\
 \wedge \\
 4 \text{ va } 3 \\
 14-4-3
 \end{array}$$

$$\begin{array}{c}
 14-8 \\
 \wedge \\
 4 \text{ va } . \\
 14-4-.
 \end{array}$$

$$\begin{array}{c}
 14-9 \\
 \wedge \\
 . \text{ va } . \\
 14-.-.
 \end{array}$$

Esda tuting:

14-5=9	14-6=8	14-7=7
14-8=6	14-9=5	

**129. Misollarni yeching.**

14-4	14-5	14-6
13-4	13-5	13-6
12-4	12-5	12-6
11-4	11-5	11-6
14-7	14-8	14-9
13-7	13-8	13-9
12-7	12-8	12-9
11-7	11-8	11-9

**130.** Donxo'rak yoniga 12 ta chittak va 2 ta chumchuq uchib keldi. Hamma qushlar ovqatlanib, uchib ketishdi. Donxo'rak yonida nechta qush qoldi? Masalaning shartini o'qing. Uning savoliga darhol javob berish mumkinmi?

**131.** Bir ayol 10 ta tuxum va yana 4 ta tuxum sotib oldi. Ayol 11 ta tuxum ishlatdi. Nechta tuxum qolgan? Masalani yeching va javobini ayting.

**132. Misollarni yeching.**

$12 + 6 + 2$	$14 + 2 + 2$
$14 - 6 - 3$	$12 - 9 - 2$
$11 - 6 + 7$	$13 - 7 + 8$
$14 + 5 - 9$	$11 + 0 - 6$

**133.** Quyidagi sonlarning har birida nechta o'nlik va nechta birlik borligini ayting. 16, 11, 20, 13, 15, 10, 14, 18, 12.

Har bir sondan 1 o'nlik ayiring. Javoblarini ayting.

**134.** Bir idishda 12 l benzin, ikkinchi idishda 6 l benzin bor. 18 l benzin ishlatildi. Necha litr benzin qoldi? Bu masalani yechish uchun nechta amal bajarish kerak? Bu masalani siz qanday yechishingizni aytib bering.

**135.** Qurilishda 9 ta yuk mashinasi va 7 ta traktor ishlayotgan edi. 15 ta mashina ishni tugatdi. Qurilishda nechta mashina qoldi? Masalaning shartini, uning savolini o'qing. Yechilishini yozing, javobini ayting.

### 136. Misollar tuzing va ularni yeching.

1- qo'shiluvchi	9	9	7	7	8	8
2- qo'shiluvchi	7	8	5	7	8	4
Yig'indi	?	?	?	?	?	?

1- qo'shiluvchi	11	14	12	13	14
2- qo'shiluvchi	9	7	8	6	5
Yig'indi	?	?	?	?	?

### 137. Misollarni yeching.

14-0	0+12	18-0
18+1	13-1	1+10
12-12	17-17	10-10
11+0	20-0	0+16
14-1	15+1	18-1
20-20	17-17	16-16

Masalalarni shunday davom ettiringki, ular ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin.

138. 1) Avtobusda 12 nafar ayol va 7 nafar erkak ketayotgan edi. Avtobusda nechta yo'lovchi ketyapti?

$$12 \text{ kishi} + 7 \text{ kishi} = 19 \text{ kishi.}$$

2) ...

Javob ...

139. 1) Aeroportda 4 ta kichkina samolyot va 9 ta katta samolyot bor edi.

2) ...

Javob ...

140. Yetishmayotgan sonni o'rniga yozing:

$$\begin{array}{c} 6 \\ \wedge \end{array}$$

5 va .

$$\begin{array}{c} 9 \\ \wedge \end{array}$$

5 va .

$$\begin{array}{c} 7 \\ \wedge \end{array}$$

5 va .

$$\begin{array}{c} 8 \\ \wedge \end{array}$$


5 va .

141. 15 dan mana bunday ayiring:

$$15-6=9$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 5 \text{ va } 1 \end{array}$$

$$15-5-1=9$$



142. 15-5-2

15-7

15-5-3

15-8

15-5-4

15-9

**Esda tuting:**

15-6=9

15-7=8

15-8=7

15-9=6

143. Misollarni yeching:

15-6

15-7

15-8

14-6

14-7

14-8

13-6

13-7

13-8

12-6

12-7

12-8

11-6

11-7

11-8

14-9

14-10

13-9

13-10

12-9

12-10

11-9

11-10

144. Quyidagi sonlarni 15 gacha to'ldiring: 7,9,4,10,8,5,14.

Masalalarni shunday davom ettiringki, u ikki amal bilan yechiladigan bo'lsin.

145. 1) Bir bankada 11 stakan sharbat, ikkinchi bankada 5 stakan sharbat bor;

2) ...

146. 1) Duradgor 9 ta tokcha yasadi, uning shogirdi esa 3 ta tokcha yasadi.

2) ...

147. Qaysi biri katta? Qaysi biri kichik?  $15 + 1$  mi yoki  $15 - 1$  mi?

Bunday yozing:

$$15 + 1 > 15 - 1$$

$14 + 1 \text{ mi yoki } 14 - 1 \text{ mi}$

$12 + 4 \text{ mi yoki } 12 - 4 \text{ mi}$

$11 - 3 \text{ mi yoki } 11 + 3 \text{ mi}$

$11 - 9 \text{ mi yoki } 11 + 9 \text{ mi}$

$8 + 7 \text{ mi yoki } 8 - 7 \text{ mi}$

$15 - 4 \text{ mi yoki } 15 + 4 \text{ mi}$

148. Misollarni yeching.

$6 + 9 - 4$

$15 - 8 + 6$

$14 - 3 - 8$

$4 + 8 - 6$

$12 - 9 + 5$

$12 - 6 - 6$

$7 + 7 - 9$

$15 - 6 + 3$

$14 - 9 - 5$

$6 + 5 - 10$

$11 - 7 + 5$

$15 - 1 - 9$

149. 16, 17, 18 dan mana bunday ayiring:

$16 - 7 = 9$

$17 - 8 = 9$

$18 - 9 = 9$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 6 \text{ va } 1 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 7 \text{ va } 1 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 8 \text{ va } 1 \end{array}$$

$16 - 6 - 1 = 9$

$17 - 7 - 1 = 9$

$18 - 8 - 1 = 9$

$16 - 8$

$16 - 9$

$17 - 9$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 6 \text{ va } . \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 6 \text{ va } . \end{array}$$

$$\begin{array}{c} \wedge \\ 7 \text{ va } . \end{array}$$

$16 - 6 - .$

$16 - 6 - .$

$17 - 7 - .$

Esda tuting:

$16 - 7 = 9$

$17 - 8 = 9$

$18 - 9 = 9$

$16 - 8 = 8$

$17 - 9 = 8$

$16 - 9 = 7$

150. Misollarni yeching.

$16 - 7$

$16 - 8$

$16 - 9$

$16 - 6 - 1$

$16 - 6 - 2$

$16 - 6 - 3$

$17 - 8$

$17 - 9$

$17 - 7 - 1$

$17 - 7 - 2$

Quyidagi masalalarning shartlari nimasi bilan farq qiladi? Bu masalalarning yechilishida qanday umumiylik bor? Nima uchun? Siz 151 va 152 – masalalardan qaysi birini qoldirgan bo‘lar edingiz? Nima uchun?

151. Zarang daraxtining balandligi 8 m, terakning balandligi esa undan 3 m ortiq. Terakning balandligi qancha?

152. Zarang daraxtining balandligi 8 m, terak esa undan 3 m ortiq. Terakning balandligi qancha?

153. Agar kichkina varrak 9 m balandlikka, katta varrak esa undan 3 m balandlikka ko‘tarilgan bo‘lsa, katta varrak necha metr balandlikka ko‘tarilgan?

154. Agar Vohid 12-qavatda, Malika esa undan 5 qavat pastda yashashi ma‘lum bo‘lsa, Malika nechanchi qavatda yashaydi?

155. Baland, past so‘zlari bilan masalalar tuzing va ularni yeching.

156. Misollar tuzing va ularni yeching.

Birinchi qo‘shiluvchi	9	6	7	8	5	10
Ikkinchi qo‘shiluvchi	9	6	7	8	5	10
Yig‘indi	?	?	?	?	?	?

Kamayuvchi	12	18	20	16	10	14
Ayriluvchi	6	9	10	8	5	7
Ayirma	?	?	?	?	?	?

157. Misollarni yeching.

$$8\text{ l} + 7\text{ l}$$

$$17\text{ l} - 9\text{ l}$$

$$12\text{ l} + 4\text{ l}$$

$$16\text{ l} - 12\text{ l}$$

$$15\text{ m} + 5\text{ m}$$

$$14\text{ m} - 8\text{ m}$$

$$18\text{ m} + 2\text{ m}$$

$$19\text{ m} - 14\text{ m}$$



$$6 \text{ sm} + 8 \text{ sm}$$

$$18 \text{ sm} - 9 \text{ sm}$$

$$11 \text{ sm} + 9 \text{ sm}$$

$$18 \text{ sm} - 13 \text{ sm}$$

Quyidagi masalalarning shartlari nimasi bilan farq qiladi? Ularning yechilishida qanday umumiylik bor? Nima uchun?

**158.** Birinchi kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesmaning uzunligi undan 4 sm ortiq. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

**159.** Birinchi kesmaning uzunligi 7 sm, ikkinchi kesma esa undan 4 sm uzun. Ikkinchi kesmaning uzunligi qancha?

**160.** 5 sm uzunlikda bitta kesma chizing, undan 2 sm uzun bo'lgan boshqa kesma chizing.

Uzunligi 9 sm bo'lgan bir kesma, uzunligi undan 3 sm qisqa bo'lgan ikkinchi kesma chizing.

**161.** Qalamning uzunligi 20 sm, cho'p esa undan 12 sm qisqa. Cho'pning uzunligi qancha?

**162.** Uzun, qisqa so'zlari bilan masalalar tuzing. Ularni yeching.

**163.** Misollarni yeching.

$$11 - 1 + 5$$

$$12 - 4 + 7$$

$$17 - 7 + 0$$

$$11 - 5 + 8$$

$$15 - 2 + 3$$

$$13 - 2 + 0$$

$$15 - 2 + 7$$

$$12 - 7 + 4$$

$$16 - 6 + 3$$

$$18 - 4 + 5$$

$$15 - 6 + 3$$

$$17 - 8 + 5$$

$$20 - 4 + 0$$

$$17 - 6 + 6$$

$$18 - 9 + 3$$

$$11 - 9 + 6$$

**164.** 10 hosil qilish uchun nechani ayirish kerak?

$$11 - ? = 10$$

$$12 - ? = 10$$

$$14 - ? = 10$$

$$20 - ? = 10$$

$$18 - ? = 10$$

$$15 - ? = 10$$

$$16 - ? = 10$$

$$17 - ? = 10$$

$$19 - ? = 10$$

$$13 - ? = 10$$

Masalalarni taqqoslang va ularni yeching.

**165.** Bankaga 2 l sut quyildi, chelakka esa undan 8 l ortiq sut quyildi. Chelakka necha litr sut quyilgan? Masalaning savoliga darhol javob berish mumkinmi? Qanday amal bilan?

**166.** Bankaga 2 l sut quyildi, chelakka esa undan 8 l ortiq sut quyildi. Bankaga va chelakka hammasi bo'lib necha litr sut quyilgan.

Masalaning savoliga darhol javob berish mumkinmi? Darhol nimani bilish mumkin? Qanday amal bilan? Endi masalaning savoliga javob berish mumkinmi? Qanday amal bilan?

**167.** Kim tezroq og'zaki hisoblaydi?

$6 + 9$	$18 - 9$	$8 + 4$
$. - 7$	$. + 6$	$. - 5$
$. + 8$	$. - 7$	$. - 12$

$14 - 6$	$17 - 9$	$20 - 10$
$. + 10$	$. + 7$	$. + 9$
$. - 5$	$. - 8$	$. - 12$
$. - 13$	$. + 12$	$. + 0$

Masalalarning shartlari nimasi bilan farq qiladi? Ularning yechilishida qanday umumiylik bor? Nima uchun?

**168.** Oq tasmaning eni 9 sm, qora tasmaning eni 2 sm ortiq. Qora tasmaning eni qancha?

**169.** Oq tasmaning eni 9 sm, qora tasma esa undan 2 sm enliroq. Qora tasmaning eni qancha?

**170.** Daryoning eni 12 m, ariqning eni esa undan 11 m kam. Ariqning eni qancha?

**171.** Daryoning eni 12 m, ariq undan 11 m tor. Ariqning eni qancha?

**172.** Bitta tokchanning eni 16 sm, ikkinchi tokcha undan 4 sm keng. Ikkinchi tokchanning eni qanchaga keng?

**173.** Daftarning eni 17 sm, kitob esa undan 3 sm ensiz. Kitobning eni qancha?

174. Keng, tor so'zlari bilan masalalar tuzing. Ularni yeching.

175. Og'zaki sanang.

$12 + 8$	$20 - 14$	$9 + 9$
$. - 14$	$. + 9$	$. - 8$
$. + 6$	$. + 5$	$. - 12$
$. - 9$	$. + 15$	$. - 0$
$18 - 18$	$7 + 8$	$20 - 6$
$. + 15$	$. - 9$	$. + 0$

176. Misollarni taqqoslang. Misollar har bir juftining javoblari nima uchun turlicha?

$14 + 6$	$11 + 9$	$13 + 7$	$12 + 8$
$14 - 6$	$11 - 9$	$13 - 7$	$12 - 8$

177. Misollarni yeching.

$12 - 12 + 6$	$6 + 6 - 10$	$20 - 10 - 10$
$15 - 9 + 5$	$7 + 9 - 6$	$10 - 6 - 10$
$14 - 7 + 7$	$8 + 5 - 6$	$18 - 9 - 6$

178. Uy qurilishida 13 ta g'isht teruvchi va 4 ta suvoqchi ishladi. Masalani ikki amal bilan yechiladigan qilib davom ettiring.

179. Opasida 18 ta rangli tarqatma va 2 ta oddiy tarqatma bor edi. Masalani ikki amal bilan yechiladigan qilib davom ettiring.

180. Namunaga qarab misollar tuzing va ularni yeching.

$9 + 3 = 12$	$8 + 5$	$7 + 4$
$3 + 9 = 12$	...	...
$12 - 3 = 9$	...	...
$12 - 9 = 3$	...	...

$9 + 6$	$10 + 3$	$6 + 5$
...	...	...
...	...	...
...	...	...

**181.** Qo'shish kerakmi yoki ayirish kerakmi?

$$12 \dots 5 = 17$$

$$13 \dots 7 = 6$$

$$12 \dots 5 = 7$$

$$13 \dots 7 = 20$$

$$16 \dots 4 = 20$$

$$19 \dots 1 = 18$$

$$16 \dots 4 = 12$$

$$19 \dots 1 = 20$$

**182.** Misollarni yeching.

$$17 + 3 - 20$$

$$15 - 5 + 10$$

$$14 + 5 - 11$$

$$17 - 9 + 12$$

$$2 + 17 - 19$$

$$18 - 9 + 0$$

$$12 + 8 - 20$$

$$11 - 11 + 5$$

$$12 + 3 - 9$$

$$20 - 20 + 15$$

$$16 + 5 - 10$$

$$14 - 7 + 12$$

$$16 + 3 - 8$$

$$15 - 8 + 6$$

$$9 + 7 - 0$$

$$16 - 6 + 3$$

Masalalarning shartlari nimasi bilan farq qiladi? Ularning yechilishlarida qanday umumiylik bor? Nima uchun?

**183.** Salomat 7 yoshda, G'ayratning yoshi undan 4 yosh ortiq. G'ayrat necha yoshda?

**184.** Salomat 7 yoshda, G'ayrat undan 4 yosh katta. G'ayrat necha yoshda?

**185.** Sobirning do'sti 12 yoshda. Sobirning yoshi undan 3 yosh kam. Sobir necha yoshda?

**186.** Sobirning do'sti 12 yoshda, Sobir undan 3 yosh kichkina. Sobirning yoshi nechada?

**187.** Tashlab ketilgan sonlarni o'rniga qo'ying va masalani yeching.

Komil .. yoshda, Komilning o'rtog'i Komildan .. yosh katta. Komilning o'rtog'i necha yoshda?

